

KONSTITUTSIYA – SHA’NIM VA QADRIM HIMYOYACHISI!**F. Maxmudova**

Samarqand tuman 10-umumta’lim maktabi

Ingliz tili fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14509970>

Inson borki, atrof-muhitga qiziqish bilan boqadi, uning ichki dunyosi savollar bilan to‘lib-toshgan bo‘ladi va aynan shu holat uni harakat qilishga, yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, yashashga da’vat etadi, uning yashashi esa doimo tevarak-atrof hamda boshqa insonlar faoliyati bilan bog‘liq holda kechadi.

Shunday ekan insonning hayot tarzi ma’lum bir tartib-qoidalar asosida kechadi.

Demak, inson dunyoga kelar ekan, dastlab ona tabiatimizda uning yashashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, navbatdagisi esa insoniyatning uzoq yillik tarixi davomida shakllanib kelayotgan insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan tartib-qoidalarning oldindan o‘rnatib qo‘yilgan bo‘lishidir.

Bunday tartib-qoidalar esa halqning aqlu-zakovati-yu, ko‘p yillik tajribasi asosida yaratilgan va biz unga “qonun” deb nom bergan hujatlarda belgilab qo‘yilgan bo‘ladi.

Ana shunday qonunlardan biri, aytish mumkinki, qonunlarning qonuni bu albatta – Konstitutsiyadir.

Biz butun dunyoni, shu jumladan mamlakatimizni doimiy taraqqiyotda ko‘rar ekanmiz, shunga mos ravishda qonunlarimizni ham takomillashtirilib borilishini hayotning o‘zi taqoza etadi.

Shu bois bizning mamlakatimiz ham taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yish asnosida Asosiy Qonunimiz – Konstitutsiyamizni yanada takomillashtirish va unda asosiy urg‘uning faqat va faqat insonning huquq va erkinlarilarini to‘la ro‘yobga chiqarilishiga qaratilishi kundalik hayotimizning hayotiy zarurati darajasiga ko‘tarildi va xalqimizning bevosita ovoz berishi orqali Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilindi va amalda qo‘llanila boshlandi.

Shaxsan menda dastlab, sodda qilib aytganda, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning ilgarigisidan qanday afzallikkari bor, degan savol tug‘ilgan, nafaqat menda balki, ko‘philligimizda ham shunga o‘xshash savollar tug‘ilgan bo‘lishi tabiiy, albatta.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni ilgarisi bilan taqqoslab, huquqshunos sifatida avvalo shunga amin bo‘ldimki, uning mazmunida aniqlikni, hayotimizda qo‘llashimiz uchun qo‘laylikni, haqiqatdan ham asosiy e’tibor inson, uning huquq va erkinliklarini ta’minlanishi hamda himoyasiga qaratilganligining guvohi bo‘ldim.

Buni birgina misol bilan izohlamoqchiman.

E’tibor bersangiz, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning inson huquqlariga oid 20-moddasida “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan

qonunchilikdagi barcha ziddiyat va nonaniqliklar inson foydasiga hal etiladi”, - deb qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Bunday qoida Konstitutsiyamizda ilgari belgilab qo‘yilmagan edi, aslida esa bunday holatlar fuqarolar bilan davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarda uchrab turar va natijasi ham ma’lum edi, ya’ni bunday nizoli vaziyatlarda masala aksariyat hollarda davlat manfaatlarini ko‘zlab hal qilib yuborilar edi.

Endi esa masala aniq, bunday holatlar faqat va faqat inson foydasini ko‘zlab, uning manfaatida hal etiladi.

Qolaversa, Konstitutsiyamizning ushbu moddasi birinchilardan bo‘lib fuqarolik sudlari tomonidan fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha chiqarilayotgan hal qiluv qarorlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalda qo‘llinila boshlandi.

Konstitutsiyamizdagi fuqarolaramizning siyosiy huquqlari bilan bog‘liq yana bir jihatga e’tibor bersak, muqaddam Konstitutsiyamizning 32-moddasida - “... davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshirilishi” fuqarolarning asosiy siyosiy huquqlaridan biri sifatida o‘rnatilgan bo‘lsa, hozirda ushbu qoidaga o‘zgartirish va aniqlik kiritilib, endilikda Konstitutsiyamizning 36-moddasida “...davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi”, - deb aniqlik bilan belgilab qo‘yildi.

Men ilgari Konstitutsiyamizning ushbu moddasidagi ushbu jumlani o‘qiganimda, ushbu siyosiy huquq bir qadar umumiylar tarzda ifodalanganligi bois mazmunini unchalik tushunolmas edim va natijada har gal o‘qiganimda “Bu huquq qanday qilib amalga oshiriladi”, - degan savol o‘z-o‘zidan paydo bo‘lardi.

Endilikda, Konstitutsiyamizda bunday huquq “jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi”, - deb aniq va lo‘nda tarzda belgilab qo‘yildiki, endi yuqoridagi kabi savolning paydo bo‘lishiga o‘rin qolmadi.

Bilamizki, insoniyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar turli tuman bo‘lganligi bois ular bir emas, balki bir qator qonunlar bilan tartibga solinar ekan, ularning barchasini mazmun-mohiyatini birday tushunib va anglab olish hamma uchun ham oson ish emas, qimmatli vaqtimiz ham hisobli, albatta.

Bunday holatda, agarda biz Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini ozgina bo‘lsada, tushunib olsak, undan avvalo nima qilishimiz mumkin, ayni vaqtida nima qilishimiz mumkin emasligini bilib olsak, natijasi bizga faqat foya keltiradi, ya’ni umumiylar qilib aytganda, nafaqat “qonunbuzilish” holatlariga yo‘l qo‘yishdan o‘zimizni asrab qolamiz, balki zarur bo‘lganida o‘z huquqlarimizni shaxsan o‘zimiz ham himoya qila olish imkoniyatiga ham ega bo‘lamiz.

Shu uchun ham Konstitutsiyamizni mazmun-mohiyatini bilishimiz va unda belgilangan qoidalardan kundalik hayotimizda, ya’ni har kuni foydalana olish darajasidagi huquqiy ongga ham ega bo‘lishimiz kerak, inchinun bu Konstitutsiyamizning asosiy talablaridan biri hamdir.

Binobarin, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 15-moddasida belgilab qo‘yilganidek, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliv yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi, davlat, uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar.

Konstitutsiyamizning ushbu moddasida e’tiborli jihatni shundaki, endilikda Konstitutsyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilish qoidasi o‘rnatilmogdaki, bunday qoidalarni xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida ham mustahkamlab qo‘yilgan, jumladan Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida ham shunday qoida belgilab qo‘yilgan.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni yana bir bor ta’kidlab o‘tmoxchiman.

Yuqorida aytilganidek, hayotimizning o‘zi taqoza qilishi tufayli qonunlarimiz anchagini, ularni hammasini ham bir vaqtida o‘qib, o‘zlashtirib olish uchun imkonimiz ham, vaqtimiz ham yetarli emasligi aniq.

Lekin, ushbu qonunlarimizning asosi, ya’ni umumiyligi huquqlarimiz, qolaversa, barcha burch va majburiyatlarimiz birgina Konstitutsiyamizda qisqa va lo‘nda qilib mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, uni o‘qib o‘rganishga esa bemalol vaqtimiz ham, imkonimiz ham yetarli.

O‘z huquqini, shu bilan birgalikda o‘z majburiyatini ozgina bo‘lsada bilgan kishi hayotda adashmaydi, boshqalarga ham zarar yetkazmaydi, kelajak maqsadini ham aniq belgilay oladi.

E’tibor bering, hayotda ko‘philigimiz bir so‘zni tez-tez ishlatalamiz, ya’ni biror ishni amalga oshirmoqchi bo‘lsak “Hammasi zakoniyligi bo‘lishi kerak”, - deb, beixtiyor aytib yuboramiz.

Biz o‘shanda aslida o‘zimiz bilmagan va sezmagan holda eng avvalo qonunlarning qonuni bo‘lgan Konstitutsiyamizda begilab qo‘yilgan qoidalarga murojaat qilayotgan bo‘lamiz.

Agar Konstitutsiyamizni mazmun-mohiyatini anglasak, ya’ni yaxshigina tushunib olsak, hayotda huquqiy nizoli masalalarga do‘ch kelganimizda esa “Ey to‘xtachi, Konstitutsiyamizda bu haqda nima deyilgan edi, bir eslab ko‘raychi”, - degan munosabat bo‘lsa, albatta bu masalaga qonuniy yechim topa olamiz.

Shu o‘rinda birgina oddiy misol, odatimiz tusiga kirib qolganki, begonani uyigaku aslo kirmaymiz, tanishimiz yoki qarindoshimizni uyiga borganda ham, oldin eshigini qoqqan holda, taklif qilganidan so‘nggina uyiga kirishimiz mumkin bo‘ladi va bu urf-odatlarimizdan biriga aylanib qolgan.

Bunday holatda esa biz, aslida bilib-bilmagan holda Konstitutsiyamizning 31-moddasida belgilab qo‘yilgan har kim turar joyi daxlsizligi huquqiga ega, hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas, degan qoidaga rioya qilayotgan bo‘lamiz.

Agarda shu qoidani buzib, ya’ni uy egasining ixtiyoriga zir ravishda uy-joyiga kirsak, u holda qanday oqibat yuzagas keladi, bunday holda ma’muriy tartibda javobgarlikka ham tortilishimiz mumkin bo‘lgan huquqbzarlikni sodir qilgan bo‘lamiz.

Keling, kundalik muloqotimizda o‘rganib qolgan “Hammasi zakoniyligi bo‘lishi kerak”, - degan jumlanı endi “Hammasi Konstitutsiyaviy bo‘lishi kerak”, -deb o‘zgartarib, uni kundalik qoidamizga aylantiraylik!

Axir bu qiyin emas-ku, to‘g‘rimi?